

SURXONDARYO BOLALAR FOLKLORINING KELAJAK AVLODGA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Xolmirzayeva Feruza Mamaraim qizi
Respublika baxshichilik san'atiga
ixtisoslashtirilgan maktab internati
Folklor bo'limi o'qituvchisi

Annotatsiya: Surxondaryo viloyati bolalar folklorining kelajak avlodga tarbiyaviy ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada Surxondaryo bolalar folklorining xususiyatlari, uning tarkibiy janrlari (beshik qo'shiqlari, o'yin qo'shiqlari, ertaklar, topishmoqlar va boshqalar) tahlil qilinadi va ularning yosh avlodning milliy ongiga, axloqiy-ma'naviy kamol topishiga qo'shadigan hissasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Surxondaryo bolalar folklorining zamonaviy sharoitda ham o'zining dolzarbligini saqlab qolganligini va kelajak avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, bolalar folklori, tarbiyaviy ahamiyat, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, beshik qo'shiqlari, o'yin qo'shiqlari, ertaklar, topishmoqlar, madaniy meros, yosh avlod, vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy ong.

Xalqimizning eng qadimiy hayotbaxsh milliy qadriyatlaridan biri folklor san'atidir. Bu san'at badiiy an'analari tizimi sifatida xalqimizning ilg'or umuminsoniy g'oyalarini takomillashtirib, kelajakka umid, ezgulik, mehr-sahovat, insoniylik, vatanparvarlik bilan bog'liq milliy va ma'naviy qadriyatlamini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Kelajak avlodni folklore bilan tanishtirishda ham ma'rifiy, g'oyaviy tarbiyaviy vz estetik jihatdan musiqa madaniyati fani tarbiyalashda asosiy ahamiyatga ega. Mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qisqa muddatda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha tarixiy, madaniy, adabiy, san'at yodgorliklari va shu navbatda xalq og'zaki ijodini chuqur o'rganish, o'zbekona, sharqona tafakkurni, g'ururni shakllantirish va kamolga etkazish doimiy e'tiborda bo'ldi. O'zbek musiqiy-folklorshunoslik fan sifatida shakllanish tarixi. Badiiy so'z san'ati madaniyatining eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'yluk hisoblanadi.

Folklorshunoslikka "xalq ijodi" atamasining mohiyati va bu tushunchaning ma'nosi haqida turli fikrlar bildirgan bo'lsa-da, xalq ijodining o'ziga xos tabiati va yetakchi xossalari to'la ochib berilgan emas. Mehnat jarayonida insonning tajribasini ortishi, ongining rivojlanishi, tabiat va jamiyat haqidagi fikr tushunchalarni obrazli so'zlar orqali tasvirlarga intilish og'zaki ijodi shaklini paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Xalq og'zaki ijodi- mehnatkash xalq ijodi. Xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi,

xalq san'atining boshqa turlaridan musiqa, teatr, raqs, tasviriy va amaliy san'at hamda boshqalaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir. U og'izdan-og'izga avloddan- avlodga, davrdan- davrga o'tib, xalqning iste'dodli vakillari ijodi ijrosida sayqal topib, o'zbek xalq poetik ijodini tashkil etdi. Biroq u dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, o'sha holicha saqlanib qolmay, ijodiy qayta ishlanib, turli o'zgarishlarga uchrab, yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyib, tarixiy sharoitga moslashib, shu bilan birga yozma adabiyotga ijobiy ta'sir etdi.

Xalq og'zaki poetik ijodi og'zaki so'z san'ati "folklor" yoki "folkloristika" deb yuritiladi. Folkloristika turli davrlarda turli mamlakatlarda goh etnografiya, goh musiqashunoslikning bir qismi deb qaralib kelindi. "Folklor" termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846 yilda qo'llandi. "Folk"- "xalq" "lor"-bilim, "donolik" "donishmandlik", ya'ni "xalq bilimi", "xalq donoligi", "xalq donishmandligi" degan ma'noni bildiradi. "Folklor" termini xalqaro terming aylanib, turli mamlakatlarda qo'llanila boshlandi. O'zbek folklorshunosligida "Folklor" termini 1932-yilda Hoji Zaif kiritdi, va oliy o'quv yurti talabalari uchun mo'ljallangan birinchi kitoblarini "O'zbek folklori" deb ataladi. Ungacha "folklor" termini o'rniga "El adabiyoti", "Og'zaki adabiyot" "o'zbeklarda og'zaki adabiyot" termini o'rnashib qoldi. O'zbek xalq og'zaki ijodi esa "folklor" deganda asosan xalq poetik ijodi tushuniladi. Xalq san'atining boshqa turlari masalan: musiqa uchun "musiqa folklori" termini qo'llaniladi.

Folklor asarlarida – musiqa raqs, teatr san'ati elementlari qo'shilib ketganligi sababli sinkretik san'at deyishimiz mumkin. Ayni paytda folklor asarlari san'atining boshqa turlaridan o'ziga xos tomonlari bilan farqlanadi. Folklorda so'z, kuy ijro birligi doimo saqlanadi. Shuning uchun xalq ijodini o'rganuvchi tekshiruvchi fan folklorshunoslik deb yuritiladi. Folklorshunoslik asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuri borib taqaladi.

Folklor asarlariga an'anaviylik bilan birga bir qatorda ijodiy o'zgaruvchanlik ham xosdir. Asarlar har gal kuylanganda va ijro etilganda nimalardir o'zgaradi, nimalardir qo'shiladi. Biroq bu o'zgarishlarning barchasi puxta va mustahkam an'analar doirasida bo'ladi. An'anaviylik folklorning so'z san'atining sifatida jonli og'zaki ijroda yashash va tarqalishining bosh mezonlaridan biridir.

Folklor musidasi va dostonchilik san'ati: folklor musiqasini milliy urfodatlarimiz, marosimlarimizning ohanglardagi ko'rinishi demak bo'ladi. Bu namunalar xalqimizning kundalik hayoti mashg'uloti va milliy qadriyatlari bilan chanbarchas bog'liqdir. Ularni aralash va kelajak avlodga to'laqonli yetkazish maqsadida maxsus folklore ansambllari tashkil etish joriy etildi. 1978-yilda ilk bor Toshkent viloyatining Bo'stonlik tumanida "Gulyor" folklori ansambllari tashkil topdi. Ayni paytda esa barcha viloyatlarda bunday ansambllar tashkil etilib, faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Musiqqa merosi tarkibidan joy olgan folklore namunalari orasida o'zbek xalqining urf-odatlariga asoslangan marosim qo'shiqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Odatda ular o'z xususiyati doirasida quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) bolalar folklori: "Boychechak", "Oq terakmi ko'k terak", "Chamanda gul"
- b) mehnat qo'shiqlari: "Mayda – mayda", "Yozi", "Xo'sh –xo'sh", "Charxim";
- d) to'y marosim qo'shiqlari: "Yor – yor", "Kelinsalom", "To'ylar muborak"
- e) diniy qo'shiqlar: "Sadr", "Zekr", "Marsiya";
- f) afsuniy qo'shiqlar: Yomg'ir chaqirish maqsadida ijro etilgan "Sust xotin" va oy- quyosh tutilganda aytiladigan qo'shiqlar;

Shu bilan birga alla, lapar, terma qo'shiqlari musiqi namunalari ham o'zbek folklor musiqasining asosiy janrlaridan hisoblanadi.

XX asrning 90-yillarida o'zbek folklorshunosligiga olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar mohiyatan yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbek folklori asarlarini barcha hududlar bo'yicha izchil to'plash va tizimga solish borasidagi ishlar jadallashtirilib yuborildi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin folklor asarlarini nashr etish borasidagi ishlar ham sifat ham miqdor ham qamrov sifatida o'sdi.

Bolalar folklori - bu kattalar folkloridan farqli ravishda, bolalar tomonidan yaratilgan yoki bolalar uchun mo'ljallangan an'anaviy og'zaki va amaliy san'at asarlarining umumiy nomi. U avlodan-avlodga og'zaki ravishda yoki yozma shaklda o'tib keladi va turli madaniyatlarda turlicha shakllar va mazmunlarga ega. Bolalar

folklorining asosiy vazifasi bolalarni ko'ngil ochish, ularga axloqiy qadriyatlarni o'rgatish, tilini va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

Surxondaryo viloyatining boy va rang-barang madaniy merosi – bolalar folkloriga bag'ishlanadi. Surxondaryo, o'zining qadimiy tarixi, boy tabiiy manzaralari va noyob madaniyati bilan mashhur bo'lgan hudud bo'lib, uning bolalar folklori ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Surxondaryo bolalar folklorining asosiy janrlari, xususiyatlari va zamonaviylikdagi o'rnini ko'rib chiqamiz. Bolalar folklorlari bir qancha turlariga bo'lib o'rganiladi. Jumladan:

Beshik qo'shiqlari: Surxondaryo beshik qo'shiqlari o'ziga xos melodiya va lirikaga ega. Ular ko'pincha tabiat tasvirlari, chaqaloqning kelajagi haqidagi orzular va duo-tilaklar bilan to'ldiriladi. Qo'shiqlarda mahalliy dialekt va shevalar ham qo'llaniladi. Masalan, “Oy qizim”, “Yulduz qizim” kabi qo'shiqlar misol bo'lishi mumkin.

O'yin qo'shiqlari: Bolalar o'yinlari jarayonida kuylanadigan qo'shiqlar Surxondaryoda ham juda ko'p. Ular odatda ritmik va harakatga mos keladi. “Qo'chqor-qo'chqor”, “Tovuq-tovuq” kabi umummilliy o'yin qo'shiqlaridan tashqari, Surxondaryoga xos o'ziga xos o'yinlar va ularga mos keladigan qo'shiqlar ham mavjud. Bu o'yinlar va qo'shiqlar bolalarning jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Surxondaryo o'zining qadimiy tarixi, boy an'analari va noyob madaniyati bilan ajralib turadi. Bu boylikning muhim qismi esa, avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelayotgan bolalar folkloridir. Surxondaryo bolalar folklorining o'ziga xos xususiyatlari uning geografik joylashuvi, tarixi va madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Mahalliy sheva va dialektlarning qo'llanilishi bolalarda ona tiliga bo'lgan muhabbatni uyg'otadi. Tabiat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan mavzular bolalarda tabiatga hurmat va ehtiyotkorlikni singdiradi. Urf-odatlar va an'analarga oid hikoyalar esa milliy qadriyatlarni asrashga hissa qo'shadi. Zamonaviy dunyoda ham Surxondaryo bolalar folklori o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. U bolalarda milliy ong va o'zlikni anglashni shakllantirishda, ularni yaxshilikka, adolatga,

vatanparvarlikka tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bolalar folklori zamonaviy ta'lim tizimida, adabiyot darslarida, madaniy tadbirlarda va oilaviy tarbiyada faol qo'llanilishi kerak. Surxondaryo bolalar folklori nafaqat ko'ngil ochish vositasi, balki yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning kuchli vositasidir. Uning saqlanishi va o'rganilishi kelajak avlodlarning milliy ongiga, madaniy boyligiga va ma'naviy kamol topishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun biz bu boy merosni asrab-avaylash va uni keyingi avlodlarga yetkazishga mas'uliyatli yondashishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Qurbonov.-Folklor musiqa o'qitish metodikasi "ILM-ZIYO-ZAKOVAT"
2. T.Mirzaev, Sh.Turdimov, M.Jo'raev, J.Eshonqulov, A.Tilabov "O'zbek folklori" Toshkent 2020
3. M.Jumaboev "Bolalar Adabiyoti va folklor" Toshkent
4. S.Yo'ldosheva, G.Sattorova "Folklor-etnografik ansambllari". Toshkent. O'qituvchi 2007 yil
5. "O'zbek xalqining milliy folklor sn'ati va etnomadaniy qadriyatlar". Ilmiy to'plam. Toshkent. Navro'z nashriyoti. 2013 yil.